

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA
UCHINCHI RENESSANS AVLODLARINI MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

*Mamajonov O‘tkirbek Tojiddinovich
Andijon davlat universiteti,
O‘quv-uslubiy boshqarma bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh qilish bo‘yicha yangicha tizim shakllanishiga doir ta’lim sohasida jahon ta’lim standartlariga faol integratsiualashuvini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, fuqarolik, pozitsiya, axborot xurujlari, kommunikatsiya, texnologiya, ma’naviy-ma’rifiy, tadbirlar, tashabbuslar, konsepsiya

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие сферы образования в Новом Узбекистане, создание Третьего Возрождения, формирование новой системы радикального реформирования сферы в процессе высшего образования для обеспечения его активной интеграции в мировое образование. образовательных стандартов в сфере образования сказано, что они направлены на повышение качества образования и инновационное развитие в учреждениях.

Ключевые слова: модернизация, гражданственность, позиция, информационные атаки, коммуникация, технологии, духовно-просветительские, события, инициативы, концепция.

Abstract: This article examines the development of the education sector in New Uzbekistan, the creation of the Third Renaissance, the formation of a new system of radical reform of the sphere in the process of higher education to ensure its active integration into world education. educational standards in the field of education say that they are aimed at improving the quality of education and innovative development in institutions.

Key words: modernization, citizenship, position, information attacks, communication, technology, spiritual and educational, events, initiatives, concept.

Ta’lim modernizatsiyasi zamonaviy nazariya va amaliyot asosida tarbiyaning yangi modellarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy ta’limning bugungi kundagi eng asosiy muammosi sifatli ta’limga ma’naviyat orqali erishishni ta’minlashdan iborat. Yer yuzida inson diniy va dunyoviy bilimlar mazmunida ma’naviyat jihatdan eng oliy qadriyat hisoblanib, undagi qadriyat bu inson shaxsining butun hayot davomida rivojlanib borishiga samarali ta’sir ko‘rsatish natijalarida aks etadi. Inson azaldan madaniyat uzatuvchisi bo‘lib qolmay, uni shakllantirish mexanizmi sifatida ham o‘z aksini jamiyat taraqqiyotida namoyon etadi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng

imkoniyatlarning ta’minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatikabilar belgilab berilgan.[1]

Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da talabalarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi:

-davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlariga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

-yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an’analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarnikamoltoptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

-talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

“Maktab – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish kabilar.

Ma’naviyat haqida fikr yuritganda, “axloq”, “ma’naviy-axloqiy tarbiya” tushunchalariga ham izoh berib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Axloq va ma’naviyat chuqur ichki o‘zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma’naviyat individ mansub bo‘lgan guruhlar axloqi ta’sirida yuzaga keladi, axloq esa, o‘z navbatida, guruh a’zolari bo‘lgan individlar ma’naviyatining o‘zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Axloq ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma’naviyat va axloq o‘z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma’lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo‘lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda tarbiyani: umumiy falsafiy ma’noda – insonning hayot sharoitlariga moslashishi; ijtimoiy ma’noda – katta avlodning hayotiy va xulq-atvor tajribalarini yosh avlodga uzatishi sifatida; keng pedagogik ma’noda – insonga majmuaviy ta’sir ko‘rsatish jarayoni va natijasi sifatida; tor

pedagogik ma’noda – tarbiyachilar jamoasi tomonidan ta’lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilar ongi, xulq-atvori va irodasiga ta’sir ko’rsatishning tizimli tarzda amalga oshiriladigan, maxsus tashkil qilingan, boshqariladigan ta’siri sifatida; amaliy ma’noda – (tarbiyachilar, murabbiylar, etakchilar, guruh rahbarlarining) aniq tarbiyaviy masalalarni hal qilishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyati jarayoni va natijasi sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh qilish bo‘yicha yangicha tizim shakllanmoqda. Ta’lim sohasida jahon ta’lim standartlariga faol integratsionalashuvini ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda, albatta, ajdodlarimizning boy merosidan ijodiy foydalanish asosiy tamoyillardan biri deb belgilangan. Bu faoliyatni samarali tashkil etish bevosita oliy ta’lim jarayonida ma’naviy kompetentligi yuqori darajadagi iqdidorli va faol yoshlarni tarbiyalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishda yuqoridagi imkoniyatlarni tizimlashtirish ta’lim jarayonining uzviy integratsion bog‘liqligini amalga oshirish va qator hamkorlikdagi faoliyatning ishtirokchi sub’yektlarini aniqlashtirish lozim bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Ta’lim to‘g‘risida”. //Xalq so‘zi, 2020 yil 24 sentyabr.
2. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”. Toshkent. 2019, 12-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27-iyuldagi PQ- 3151-son Qarori
4. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir // «Xalq so‘zi» 2017 yil 1 iyul.
5. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 240 b.